“T A S D I Q L A Y M A N”
“Navoiy KMK” AJ huzuridagi
Jamoatchilik kengashi raisi o‘rinbosari

X.R.Raupov
2025 yil “ 15 ” 08

“Navoiy kon-metallurgiya kombinati” AJ huzuridagi
JAMOATChILIK KENGAShI YIG‘ILIShI
BAYoNI № 07/2025

Navoiy shahri **2025 yil “ 14” avgust**

Raislik qiluvchi: X.R.Raupov -Jamoatchilik kengashi raisi o‘rinbosari

Ishtirok etdi: Kengash a’zolari *(ro‘yxat bo‘yicha)*

KUN TARTIBI:
Ko‘pming kishilik jamoa ishchi-xodimlari o‘rtasida sog‘lom muhitni ta’minlash, huquqiy madaniyatni oshirish, ishchi-xodimlar qalbida vatanparvarlik tuyg‘usini shakllantirishga qaratilgan targ‘ibot ishlarini olib borish bo‘yicha olib borilayotgan ishlar mavzusida yig‘ilish o‘tkazish to‘g‘risida
(Raupov, Djuraev, Sadriddinov, Soyibov, Radjabov, Isoqov, ... Raupov)

“Navoiy KMK” AJ huzuridagi Jamoatchilik kengashi raisi o‘rinbosari X.Raupov yig‘ilishni ochib, mavzu yuzasidan qisqacha axborot berdi. Jumladan, ma’ruzachi o‘z fikrida ayni paytda NKMK va bo‘linmalari joylashgan hududlarda jami 9 ta sport maskanlari bo‘lib, ularga 10 mingga yaqin ishchi-xodimlar, oila a’zolari va farzandlari sport bilan shug‘ullanayotgani, doimiy ravishda ma’naviy-ma’rifiy tadbirlar o‘tkazib kelinayotgani hamda bu ishlarni yanada kuchaytirish zarurligini ta’kidladi.

Muzokaralarda O.Temirov, R.Avezov, S.Radjabov, S.Nazarova, F.Soyibov va boshqalar tomonidan turli taklif va fikr-mulohazalar bildirildi.

Kun tartibida bildirilgan fikr-mulohaza va takliflardan kelib chiqib, yig‘ilish

QAROR QILADI:

1. Jamoatchilik kengashi raisi o‘rinbosari X.R.Raupovning mavzu yuzasidan hisoboti ma’lumot uchun qabul qilinsin.
2. Jamoatchilik kengashi a’zolariga:

Joylarda jismoniy tarbiya va sportni yanada rivojlantirish;

Huquqiy madaniyatni oshirish, ishchi-xodimlar qalbida vatanparvarlik tuyg‘usini shakllantirishga qaratilgan targ‘ibot tadbirlarini ko‘paytirish yuzasidan mehnat jamoalarida faol tashviqot ishlarini yanada oshirish vazifasi topshirilsin.

3. Ushbu yig‘ilish bayoni ijrosini nazorat qilish Jamoatchilik kengashi kotibi A.Jo‘raev va Kengash a’zolari zimmasiga yuklansin.

Bayonlashtirdi: **A.Jo‘raev**